OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY POTENSIALI MUHITIDA TALABALARNI TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI

XUSHVAQTOVA YULDUZ BAHRIDDINOVNA

Termiz muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyining matematika fani o'qituvchisi

QODIROVA SHODIYA BAHRIDDINOVNA

Termiz muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyining matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Boshlang'ich kursdagi talabalarga ta'lim berish o'qituvchilar uchun juda ma'suliyatli jarayon isoblanadi. Talabalarni oldinga tortish uchun, o'qituvchi innovatsion ta'lim usullarini muvaffaqiyatli ravishda qo'llashni bilishi kerak. Axborot texnologiyalari va interaktiv darsliklar kabi vositalar o'quvchi jamiyatini mustahkamlaydi va ularning ta'lim olish sifatini yaxshilaydi.Ular boshlang'ich kurslar o'quvchilarini tinglaydi va ularning o'zlarini jismonan, ma'naviy ravishda va ilmiy tarbiyada rivojlantirish uchun mahorat va qobiliyatini rivojlantiradi.Ta'lim tizimi rivojlanib borayotgan bir paytda ananaviy bo'lgan bir qator talablar doimo o'z o'rnini yo'qotmaydi va talablar ushbu ma'qolada SAT bo'yicha O'zbekistondagi eng yaxshi mutaxassislardan biri bo'lgan Marifat Jamalning o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarini sizga ham ulashaman va uni bazi fikrlariga qo'shicha ravishda fikrlarimni bildirib o'taman. Ushbu mutaxassis bir necha yillardan beri o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanib kelmoqda va shogirdlari dunyoning yetakchi universitetlariga grand asosida o'qishga kirmoqda.Quyida esa mutaxassis qizimizi fikrlari bilan o'rtoqlashamiz

Kalit so'zlar: Z-avlod, interaktiv, mobil ilovalar, media savodxonlik, obyektiv tasavvur

Kirish Mobil ilovalar va interaktiv ta'lim o'zgaruvchilari: O'qituvchilar, mobil ilovalar va interaktiv ta'lim o'zgaruvchilarini qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchilarning o'zlarining tezlikda tushunishlarini oshirish va shaxsiy ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanishi mumkin. Individual Dastur Tuzish: O'qituvchi, barcha o'quvchilarning shaxsiy o'zlashtirishi va ta'lim ko'nikmalarini hisobga olgan holda, har bir o'quvchiga maxsus dastur tuzadi. Bu, o'quvchilarning individual qobiliyatlariga va o'zgaruvchanligiga mos keladi

1. Siz darsda pozitiv energiya tarqatishga majbursiz!

Darsga kirishingizdan oldingi kayfiyatingiz qanchalik yomon bo'lishidan yoki hayotingiz qanchalik achinarli bolishidan qatiy nazar hammasini unutib xonaga yuzingizda tabassum bilan kirib borishingiz kerak. Sizning kayfiyatingiz bu shaxsiy holatingiz va bu darsga ta'sir qlmasligi kerak. Bu fagat kulib turishingizni anglatmaydi, balki darsga 100% fokus bergan holatda vaziyatga qarab hissiyot ko'rsata olishingizni bildiradi**.**

2. Auditoriyani (o'quvchilarni) o'zingizga bolgan ishonch bilan rom eting. Qanchalik bilimli bo'lishingizga qaramasdan agar sizda o'zingizga bo'lgan ishonch mavjud bo'masa siz auditoriyani kuchli shaxs ekaningizga ishontirolmaysiz. Yana bir gap Birinchi dars juda muhim va siz bu darsdan boshlab xarizmangiz va ishongchingiz bilan o'quvchilarni nokaut gilishingiz kerak. Yoki ular sizni ishonchsizlik, hurmatsizlik, yoki shovqin bilan nokaut qilishadi.

3. Doimo oldindan planlashtiring! Har bir darsdan oldin butun dars vaqtini rejalashtiring, ya'ni qancha vaqt vazifa tekshirasiz, qancha vaqt o'tgan mavzuni takrorlaysiz va yana qancha vaqt

yangi mavzuni tushuntirasiz. Darsni planlashtirish orqali siz birinchi navbatda qanchalik mas'uliyatli inson ekaningizni ko'rsatasız va o'quvchilar ham siz bilan sarflayotgan har bir daqiqasi unumli o'tayotganini his qilishadi!

4. Chiroyli so zlarni yig'ishtiring! Sizni asosiy maqsadingiz chiroyli akademik tilda gapirib tinglovchida ustozimiz aglliekan degan taassurot qoldirish emas. Aksincha qo’lizdan kelgancha sodda va oquvchilar tushunadigan terminlardan foydalanib tinglovchilar siz berayotgan har bir ma'lumotni mohiyatini tushunishayotganini nazorat qilishingiz kerak! Masalan, men darslarimda ko'cha tilidan foydalanaman. Bu ba'zilar qo'pollik yoki tilga nisbatan xurmatsizlik deb bilishi mumkin. Lekin sizning prioritetingiz bu o'quvchi tushunishi ya maksimal darajada darslarni qiziqarli va zavqli qilish. Buni oylab ko'ring

5. Mavzuga chuqur yondashing! Har bir mavzuni umumiy holatda birinchi tushuntiring. Ikkinchi qadam esa biroz qiyinroq, keyin juda giyin holatlarini o'ylab toping. Oxirgi qadam esa umuman qoidadan tashqaridagi holatlarni tushuntiramiz, ya'ni istesnoli vaziyatlarni (agar bo'lsa albatta). Shunchaki o'zingizni o'quvchidek tasavvur qiling. Qiziqqon boling! Savollar tuzingva oldindanjavob berishga harakat qiling.

6. Ustoz ham xato qila oladi!Ustoz ham inson. Uning ham xatoqilishga haqqi bor. Lekin,xato qilishda bir narsa gilish mumkin emas. Tushuntirib beraman. Masalan, aytaylik o'quvchi sizdan bilmagan savolingizni so'radi. Siz bilmayman deyishga uyalib oz bilganlaringizga asoslanib tushuntirib berdingiz va xato qilib qo'ydingiz. Buni to'g'rilashga ko'pchilik uyaladi va qaytatushuntirib berishmaydi. Siz bunday qilmang! Nima gilishingiz kerak? Mavzu bo'yicha o’zingiz chuqur izlaning har xilmanbaalardan foýdalaning va ma'lumotlarni solishtiringKeyingi safar esa, o'tgan safar bu mavzu bo'yicha savol so'ragan edingiz, keling shuni chuqurroq korib chiqamizchunki biroz xatolik ketibdi deb tushuntiring. Bu nafaqat siznixatoyingizni tan olishingizni korsatadi, balki o'z ustingizdatinimsiz ishlashingizni va o'quvchilarga doimo maksimalyordam berishni xohlashingizni ham bildiradi. Sinab ko'ring!

7. Yechim berishdan oldin muammoni ko'rsating

Yangi mavzuni tushuntirishdan oldin o'quvchilarga mavzuga oid savol bering. Ha, shunday qiling. Bu yordamida siz o'quvchilarga muammolari borligini ko'rsatasiz, lekin shu bilan birga mana shu muammoga yechim ham olishlarini yetkazib berasiz. An'anaviy darsni boshlash (masalan, sizlarga manashu narsani o'rgataman deb boshlash) - zerikarli.8. Darsingizni eng avvalo o'zingiz fanati boling! Har doim 0'zingiz o'quvchilarga orgatayotgan narsaniqanchalik yaxshi ko'rishingizni xarizma va energiyangiz bilanko'rsatib berishingiz kerak. Doimo bilimingizni qanchalikrivojlantirib borishingizni, o'z ustingizda ishlashingizni, vaqanchalik uni oson yetkazishga boshqalardan ko'ra kofproqharakat qilishingizni amalda ko'rsatib bering

9.Dars interaktiv emasmi?

Natija - 0 Siz qanchalik xarizma bilan dars o'tsangiz ham tinimsiz ma’ruza hammani charchatadi. Sizni qanchalik yaxshi ustozligingiz har doim ham sizni nimalarni bilishingiz yoki qanchalik energiya bilan dars o'tishizga emas balki o'quychilar sizdan qancha kop narsa olayotganligiga qarab o'lchanadi. Tushunishingiz kerak, Z-avlod bu juda tez chalg'uvchilar erasi hisoblanadi. Shuning uchun darslar ta'minlang. Har qadamda savollar bering o'tayotgan kichik mavzularingiz bo'yicha.

10. O'quvchilarni tushunmaganligi uchun emas balki mas'uliyatsizligi uchun jazolang! Chunki, bu bilan oquvchilarni ishtiyoqini o'ldirib qoyishingiz mumkin. Yani, ularni bilmasliklarini

takidlash orqali. Undan ko'ra bergan vazifalaringizni bajarmaganliklari uchun jazolang. Bu ularni yaxshiroq bajarishga undaydi.

Xulosa. Bu fikrlardan quyidagi ma’lumotlarni olish bilan birga,shaxsiy komponentlar qo’shish bilan fikrlani xulosalash mumkin.Hozirgi globallashuv davrida inson tobora murakkab mantiqqa ega bo’lishi talab etiladi.Chunki rivojlangan va to’xtovsiz yangiliklar va texnologiyalar o’ylab topilayotgan davrda mutaxassislar,olimlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalardan doimo oldinda bo’lishi talab etiladi

Adabiyotlar

1. Ta‟lim va XXI asr. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari. M. 2009. 39-40 b.

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed N.V. Bordovskaya - 2-nashr: KNORUS, 2011. - 432 b. FTAI Jild: 03 | Nashr: 06 | June 2022 “BILIG – ILMIY FAOLIYAT” nashri http://bilig.academiascience.org 431

3. Tixobaev A.G. Kompyuterni o'rganishning interfaol texnologiyalari. // Vestn. Tomsk davlati ped. universiteti (Tomsk davlat pedagogika universiteti xabarnomasi). 2012.

4. Valiyevich, Y. S., & Azamatjon, O. (2022). Theoretical And Practical Prospects For The Development Of Ethnoturism In Uzbekistan. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(4), 21-24.

5. Valievich, Y. S. (2020). Children‟s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

6. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 2(2), 95-98.